Диагностический потенциал формирования критического мышления в оценке нравственной воспитанности студентов педагогических вузов.....	645
<i>Азимова Гулрухбону, Абдувалиева Мухайё</i>	



Musiqa darslarida 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlari....	652
<i>Ochilova Mohinur</i>	
Oliy ta'limda fransuz tilini o'qitishda qr-kod texnologiyalarining samaradorligi .....	656
<i>Muzaffarova Nodira Mardonovna</i>	
Смарт-технологии как инструмент повышения эффективности управления .....	660
<i>Байбаева Мухайё Худайбергеновна, Дехконова Мохларойим Бахтиёржон кизи</i>	
Odam markaziy asab tizimi taraqqiyoti va uni rivojlantirishning amaliy yechimlri.....	664
<i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>	
Mentimeter dasturi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	669
<i>Djabbarova Xabiba Kuvandikovna</i>	
Talabalarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda yangi renessans pedagogikasining o'rni.....	673
<i>Qlicheva Go'zal Chorshanbiyevna</i>	
Kognitiv rivojlanish zamonaviy ta'lim nazariyasida kompleks fenomen sifatida .....	678
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i>	
Kursantlarning maxsus chidamkorligini oshirishda qo'llaniladigan vosita va usullar .....	681
<i>I. B. Bobomuratov</i>	
The Main Aspects of the Development of Digital Literacy in Higher Pedagogical Education .....	685
<i>Yusupova Go'zal Oybek qizi</i>	
Conceptual Approaches to Understanding Fanaticism Among Female Adolescents.....	689
<i>Sobirova Sojidxon Akramjon qizi</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarida basketbol texnika va taktikasini shakllantirishning pedagogik asoslari.....	692
<i>Bobojonov Nozimjon Ne'matjonovich, Sirojiddin Nasriddinov Salohiddin o'g'li</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa nazariyasi va solfedjio darslarining pedagogik xususiyatlari .....	695
<i>Bobojonova Zeboxon Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish ..	699
<i>Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich</i>	
Talabalar identiteti va ularga ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining global ahamiyati .....	702
<i>N. T. Tojiboyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning zamonaviy usullari .....	707
<i>Narzullayev Mavlonbek Zikrillo o'g'li, Ostonov Zafar Zamonovich</i>	
Ta'lim metodlari va usullarini modernizatsiya qilish asosida ilmiy tadqiqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	710
<i>Olimov Temir Xasanovich</i>	
Changes in Adolescents' Communication Under the Influence of Social Media: Emotional Intelligence and Internet Addiction Issues .....	715
<i>Salomov Shamsiddin Sabokhiddin Ugli</i>	
O'smir qizlarning jismoniy rivojlanishini takomillashtirishda defile mashqlaridan foydalanish metodikasi ...	720
<i>Shaxbazova Gulrux Orifjon qizi, Abdullayeva Maxbuba</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirish metodikasi.....	724
<i>Ubaydullayeva Nazokat Ibodullo qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish: nazariy asoslar, amaliy modellar va innovatsion yondashuvlar .....	728
<i>Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi</i>	
Talaba-yoshlar jismoniy madaniyat va sportini rivojlantirishning strategik imkoniyatlari .....	733
<i>Yusupxo'jayev Oxunjon Shuxrat o'g'li</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....	737
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Компенсация трудностей в обучении детей младшего школьного возраста, находящихся на длительном лечении .....	742
<i>Алимова Нигора Исраиловна, Холлиева Нодира Хайтмуратовна</i>	

Формирование профессиональных компетенций будущих художников через освоение узбекского орнамента в системе заданий по композиции.....	745
<b>Д. Б. Бабаева</b>	
Методика и подходы обучения речи в школьной практике .....	750
<b>Шарипов Одилжлон Гуломжон угли</b>	
Iqtidorli talabalarni aniqlash va rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar .....	754
<b>Abdiyeva E'zoza Beknazar qizi</b>	
Innovatsion menejment tizimida malakali kadrlar tayyorlashning samarali mexanizmlari .....	759
<b>Hikmatova Niginabonu Siddiq qizi</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni anonim baholash tizimining ishonchligi va pedagogik samaradorligini baholash.....	764
<b>Maksudova Aziza Ikramdjanovna, Akramxo'jayev Yo'ldoshxo'ja Tursunxo'jayevich, Avezov Toshtemir Abdualiyevich, Abdullayeva Maftuna Shonazarovna</b>	
Raqamli ta'lim muhitida mexanikani o'qitishning pedagogik muammolari.....	771
<b>Choriyev Islom G'ayratovich</b>	
Musiqqa mashg'ulotlarida sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....	775
<b>Siddiqova Gulnoza Sharaviddinovna, Bahora Akbarova</b>	
Moychechak yetishtirishda mineral va organik o'g'itlarning ta'siri .....	778
<b>Jabbarova Nigina Zoxidjon qizi</b>	
Kompetensiyaviy yondashuv sharoitida bo'lg'usi matematika o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish .....	783
<b>Esonov Munavvarjon Mukimjonovich, Xabibullayev Islomjon Soyibjon o'g'li</b>	
Специфика формирования математического мышления студентов вузов посредством модуля "векторы" .....	786
<b>Эсонов Мунавваржон Муқимжонович, Салихов Амир Тимурович</b>	
Autizm spektri buzilishiga ega bolalar oilalarida sibling munosabatlarining nazariy-metodologik asoslari..	790
<b>Rayimova Gulchehra Utkur qizi</b>	
Особенности использования инструментов управления проектами: отраслевой подход.....	794
<b>Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etishda qiyinchiliklar va samarali strategiyalar.....	800
<b>Abdalimova Iroda Ummatqul qizi</b>	
Manzara janrining tasviriy san'atdagi o'rni: ekologik-estetik mazmuni va ta'limiy imkoniyatlari .....	805
<b>Abdumajidova O'g'loy Ravshanjon qizi</b>	
E-Assessment vositalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va funksional imkoniyatlari.....	809
<b>Abdumannopov Murodjon Ilxomjon o'g'li</b>	
Masofaviy ta'lim jarayonida talabalar faolligini oshirishning interfaol metodlari.....	813
<b>Abduvaxobov Shohruhbek Ikromjon o'g'li</b>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlashdagi muammolar .....	816
<b>Davlatova Furuza Kamolovna</b>	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim va zoologiya fanini o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish .....	820
<b>Hayitov Abdurasul Eshdaviatovich, Xolboyeva Nigina Uchqunovna, Ravshanov Asliddin Ulug'bek o'g'li</b>	
Sport gimnastikasida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning pedagogik va amaliy jihatlari.....	826
<b>Karimov Doniyor Komil o'g'li</b>	
Neyropsixologiya va neyropedagogikaning shakllanishi va rivojlanish tarixi .....	830
<b>N. O. Saidova</b>	
Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishining nazariy asoslari.....	833
<b>Nosirova Shoxsanam Negmat qizi</b>	
Maxsus pedagogning kasbiy kompetentligi: zamonaviy yondashuvlar va muammolar .....	837
<b>Shodiyeva Gulchiroy Nurqosimovna</b>	
O'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirishda tasviriy san'at va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish.....	841
<b>Tulaganov Jahongir Abdimurot o'g'li</b>	



Vizual ta'lim texnologiyalari yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini diagrammaviy masalalar yordamida rivojlantirish .....	845
<i>Usmonova Shahlo Saidjon qizi</i>	
Biologiya darslarida o'quvchilarning ilmiy xabardorlik kompetensiyasini shakllantirishda mashq va masalalardan foydalanish metodikasi .....	849
<i>Yakubova Fotima Xamza qizi</i>	
Система духовных ценностей в современной русской прозе (а. волос "сирийские розы") .....	853
<i>Ольга Чангировна Хегай</i>	
Alohida yordamga muhtoj bolalar toifalari va ularning pedagogik-psixologik tasnifi .....	856
<i>Xaydarova Umidaxon Baxromjon qizi</i>	
Rang nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklar va paremiyalarda milliy-madaniy xususiyatlar .....	858
<i>Azizova Zarina Alixanovna</i>	
Kvest o'yinlari orqali bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida .....	861
<i>Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Davronova Ra'no Komilovna</i>	
Dizayn o'ylash jarayonini bolalar bilan mashg'ulotda qo'llashning metodik yondashuvlari .....	865
<i>Hasanova Sevinchoy Ramazon qizi</i>	
Umumta'lim maktablari fizika ta'limida mexanika bo'limini izchillik yondashuvi asosida o'qitish zaruriyatining ilmiy asoslari .....	869
<i>Yusupov Dilmurud Abdurashidovich, Azimova Shahnoza Akramjon qizi</i>	
STEAM va ijodiy metodlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarni tayyorlash: triz, montessori va mnemotexnikani integratsiyalash .....	873
<i>Abdumajitova Sayyohat Abduqosimovna</i>	
O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish metodikasini tadqiq etish modeli .....	877
<i>Usmanova Sabohat Erkinovna</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning pedagogik mohiyati .....	880
<i>Abdunazarova Zebiniso Xudoyshukurovna</i>	
Shaxs psixik rivojlanishida sog'lom turmush tarzi va atrof-muhit ta'sirining ahamiyati .....	884
<i>B. Raximov</i>	
Boshlang'ich ta'limda STEAM integratsiyasi: tajribalar va innovatsion yondashuvlar .....	887
<i>Bozorov Nurbek Alisher o'g'li, Muxtarova Lobar Abdimannabovna</i>	
Ona tili darslarida o'qish savodxonligini oshirishda matn bilan ishlash .....	890
<i>Erdanova Zamira Olimovna</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik texnologiyalarni qo'llashning metodik asoslari .....	894
<i>Murotova Gulnoza Saidqulovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida fanlararo absissial va ordinal aloqadorlikni rivojlantirish .....	897
<i>Muxtarova Lobar Abdimannabovna</i>	
Tabiiy fanlarni o'rgatishda kompleks yondashuv .....	900
<i>Qodirxonova Gulnozaxon Odilxon qizi, Zokirov Furqat Mansurovich</i>	
Современные подходы к формированию содержания общего среднего образования на основе зарубежного опыта .....	902
<i>Хакимова Дилдора Машрабжоновна</i>	



# UMUMTA'LIM MAKTABLARI FIZIKA TA'LIMIDA MEXANIKA BO'LIMINI IZCHILLIK YONDASHUVI ASOSIDA O'QITISH ZARURIYATINING ILMIY ASOSLARI



**Yusupov Dilmurod Abdurashidovich**  
Namangan davlat pedagogika instituti  
“Intellektual fanlar va axborot texnologiyalari”  
kafedrası dotsenti, PhD  
**ORCID: 0009-0001-8414-2764**



**Azimova Shahnoza Akramjon qizi**  
Namangan davlat pedagogika instituti magistri

**Annotatsiya:** Insoniyat faoliyatining turli sohalarida texnologiyalarning jadal rivojlanishi ilm-fan taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu munosabat bilan umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy talablarga mos innovatsion axborot texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ilg'or pedagogik va raqamli texnologiyalarni amaliyotga joriy etish masalalari tahlil qilinadi. Ayniqsa, fizika ta'limi jarayonida mexanika bo'limiga oid abstrakt tushunchalarni, shuningdek, fazo va vaqtni materiyaning obyektiv mavjudlik shakllari sifatida ilmiy asosda o'rganishning dolzarbligi va zaruriyati asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** axborot texnologiyalari, materiya, mexanik harakat, fazo, vaqt, Nyuton mexanikasi, skalyar kattalik, vektor kattalik, animatsion materiallar.

**Abstract:** Rapid technological development is recognized as one of the key factors driving progress in science and education. In this context, the study analyzes the development and implementation of modern information, pedagogical, and digital technologies in general secondary education. Particular attention is paid to the teaching of physics, especially the study of abstract concepts in mechanics, as well as the interpretation of space and time as objective forms of the existence of matter. The importance of integrating innovative approaches into the educational process to enhance learning effectiveness is emphasized.

**Key words:** information technologies, matter, mechanical motion, space, time, Newtonian mechanics, scalar quantity, vector quantity, animation materials.

**Аннотация:** Стремительное развитие технологий рассматривается как один из ключевых факторов прогресса науки и образования. В этой связи анализируются вопросы разработки и внедрения современных информационных, педагогических и цифровых технологий в систему общего среднего образования. Особое внимание уделяется преподаванию физики, в частности изучению абстрактных понятий раздела механики, а также рассмотрению пространства и времени как объективных форм существования материи. Подчеркивается значимость интеграции инновационных подходов в образовательный процесс для повышения эффективности обучения.

**Ключевые слова:** информационные технологии, материя, механическое движение, пространство, время, ньютоновская механика, скалярная величина, векторная величина, анимационные материалы.

## KIRISH

So'nggi yillarda insoniyat faoliyatining turli sohalarida texnologiyalarning jadal rivojlanishi ilm-fan taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmog'ida. Ma'lumki, jamiyat va ta'lim tizimi o'rtasida o'zaro uzviy, dialektik bog'liqlik mavjud: jamiyat ta'lim tizimining rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib bersa, ta'lim tizimi tomonidan tayyorlangan malakali mutaxassislar jamiyat taraqqiyotiga bevosita xizmat qiladi.

Zamonaviy texnologiyalarning aksariyati fizik qonuniyat va jarayonlarga asoslanadi. Shu bois, fizik bilimlarsiz yangi texnologiyalarni yaratish hamda ularni samarali qo'llash deyarli mumkin emas. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika ta'limini takomillashtirish uchun o'quv jarayoniga zamon talablariga mos, mazmunan boy va innovatsion axborot texnologiyalarini joriy etish zaruriyati tobora ortib bormog'ida <sup>[1]</sup>.

Fizika fanini o'qitish metodikasidagi mavjud muammolarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, respublika miqyosida o'tkaziladigan test sinovlari natijalarida abituriyentlarning fizika fanidan olgan ballari ko'pincha past ko'rsatkichlarni namoyon etmog'ida. Ushbu holat fizika ta'limining samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni joriy etishni talab etadi.

Mazkur muammoni hal etishning muhim yo'llaridan biri - fizika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan ilmiy-metodik yondashuvni qo'llashdir <sup>[2]</sup>. Bunda o'qituvchidan induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, modellashtirish hamda analogiya kabi ilg'or didaktik usullardan keng va samarali foydalanish talab etiladi. Bu esa o'quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish bilan birga, ularning amaliy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bu esa umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika fanining barcha bo'limlarini axborot texnologiyalari asosida o'qitishni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishni zarurat sifatida belgilaydi. Xususan, fizikaning boshlang'ich bo'limi bo'lgan mexanikani o'qitishda har bir mavzuni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umumta'lim maktablarda fizikani axborot texnologiyalari vositasida o'qitishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar, yoritilgan ilmiy-metodik manbalarning tegishli tahlili shuni ko'rsatmog'daki, umumta'lim tizimida fizika kursi bosqichlariga tegishli bilimlarni o'qitishning pedagogik, metodik hamda didaktik jihatlari metodist olimlar A. Boydedayev, Y. Po'latov, K.A. Tursunmetov, D.A. Begmatova, X.X. Tojiboyeva, M. Qurbonov, B. Mirzaaxmedov, O.Q. Quvondiqovlarning pedagogik tadqiqotlarida fizika fanini o'qitishda fizik namoyish va tajribalar o'tkazish asosida ta'lim samaradorligini oshirish, Sh.I. Mamarajabov, X.B. Norbo'tayev, S. Qaxxorov, X.X. Tojiboyevalar tomonidan fizika fanini o'qitishda fanlararo bog'lanishlarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, Y. Maxmudov, Sh.O. Toshpo'latova, K.T. Suyarovlar esa o'z izlanishlarida fizik tajribalar yordamida o'quvchilarda o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni yanada takomillashtirishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Biroq, fizika kursining mexanika va molekulyar fizika bo'limlarining ta'limning keyingi bosqichlarida yuzaga kelayotgan abstrakt tushunchalarini innovatsion o'qitish zaruriyatini aniqlash, dars mashg'ulotlarini tashkil etishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, fizika kurslarining mexanika va molekulyar fizika bo'limlariga tegishli virtual laboratoriya mashg'ulotlarini ishlab chiqish va shu orqali ta'limga izchillik tamoyilini joriy etishni takomillashtirish imkoniyatlari to'liq tadqiq etilmaganligi, o'quvchilarning fazo, vaqt va materiya uyg'unligi g'oyalarni o'zlashtirishda qiyinchilikka uchrashi hamda o'quv laboratoriya mashg'ulotlarida an'anaviy o'qitishning o'quv-uslubiy muammolarining saqlanib qolayotganligi mazkur sohaga doir ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada umumta'lim maktablarining fizika fani darsliklarida mexanika va molekulyar fizika bo'limlarida mavjud uzluksiz ta'lim jarayonida vujudga kelayotgan abstract tushunchalar tahlil qilindi va o'quv fizik masalalar turlari, ularni ishlashning usul va uslublari, o'quvchilarning mexanik tushunchalarga oid ko'nikma darajasini tashxislash usullaridan foydalanildi.



Bizni o'rab turgan atrof-muhitda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlar, ya'ni materiyaning harakati muayyan tartib va ketma-ketlik asosida yuz beradi hamda ular ma'lum davomiylikka ega bo'ladi. Hech bir hodisa yoki jarayon bir lahzada sodir bo'lmaydi. Materiyaning uzluksiz va cheksiz harakati aynan vaqt orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli vaqt materiya mavjudligining obyektiv shakli sifatida qaraladi. Bundan tashqari, barcha moddiy jismlar fazoda bir-biriga nisbatan ma'lum tartibda joylashgan bo'lib, ular muayyan o'lcham va hajmga ega. Harakat jarayonida jismlarning o'zaro joylashuvi va fazoviy holati o'zgarib boradi. Demak, materiya harakati nafaqat vaqt bilan, balki fazo bilan ham uzviy bog'liqdir. Shu jihatdan fazo ham materiya mavjudligining obyektiv shakli hisoblanadi [3].

Mazkur tushunchalarni o'quvchilarga samarali yetkazishda zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish, jumladan videolarlar, animatsiyalar va slaydlar orqali materiya harakatini vizual tarzda namoyish etish yuqori natijadorlikni ta'minlaydi. Bunday yondashuv o'quvchilarda materiya, fazo va vaqt, shuningdek mexanik harakat tushunchalari bo'yicha puxta ilmiy bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mexanika rivojida muhim o'rin tutgan Isaak Nyuton tomonidan ilgari surilgan absolyut, harakatsiz va bo'sh fazo haqidagi tasavvur zamonaviy ilmiy qarashlar nuqtayi nazaridan to'liq asosli deb qaralmaydi. Fazo va uning geometrik elementlari - nuqta, chiziq, sirt va hajm - moddiy jismlarning xususiyatlarini umumlashtirish natijasida shakllangan abstrakt tushunchalar sifatida talqin etiladi.

Nyuton mexanikasida fazo barcha yo'nalishlarda bir xil xossalarga ega bo'lgan, ya'ni bir jinsli va izotrop muhit sifatida qaraladi. Shu bois, mexanik hodisalarni tahlil qilishda fazoni bir jinsli va izotrop deb qabul qilish ma'lum darajada soddalashtirish imkonini beradi. Biroq mutlaqo harakatsiz va hech qanday moddiy jismlar bilan bog'lanmagan absolyut fazoning mavjudligini tasdiqlash ilmiy jihatdan murakkab va bahsli masaladir.

Amaliy nuqtayi nazardan qaralganda, fazo har doim muayyan jismlar yoki sanoq sistemalari bilan bog'langan holda tasavvur qilinadi. Xuddi shuningdek, klassik nazariyaga ko'ra vaqt jismlarga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan absolyut davomiylik sifatida talqin qilinadi. Ammo zamonaviy ilmiy yondashuvlar vaqtning materiya mavjudligining ajralmas shakli sifatida qaraydi va uni materiyadan mustaqil holda tasavvur etish mumkin emasligini ta'kidlaydi. Mazkur murakkab tushunchalarni ta'lim jarayonida o'quvchilarga yetkazishda faqat og'zaki tushuntirish bilan cheklanib qolmasdan, yozma materiallar, multimedia vositalari, ko'rgazmali qurollar, turli namoyishlar, didaktik o'yinlar hamda hayotiy misollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv o'quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Materiya harakatining eng sodda ko'rinishi mexanik harakat hisoblanadi. Jismlar yoki ularning qismlarining fazoda vaqt o'tishi bilan bir-biriga nisbatan o'z o'rnini o'zgartirishi mexanik harakat deb yuritiladi. Bunda bir jismning holati boshqa jismlarga nisbatan o'zgarib boradi. Masalan, kema qirg'oqdagi buyumlarga nisbatan, poyezd temir yo'l relslariga nisbatan, tramvay, trolleybus va avtobuslar esa binolarga nisbatan harakatda bo'ladi. Shunga qaramay, qirg'oq, rels va daraxtlar ham Yer bilan birga harakatlanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tabiatda mutlaqo harakatsiz jism mavjud emas. Tabiatdagi barcha jismlar harakatda bo'lgani uchun har qanday tinchlik holati nisbiy hisoblanadi. Xuddi shuningdek, harakat ham nisbiydir. Jismlarning mexanik harakatini va nisbiy tinchlik holatlarini o'rganadigan fizika bo'limi mexanika deb ataladi. Mexanika uch asosiy qismga bo'linadi: kinematika, dinamika va statika.

Kinematika mexanik harakatni uni yuzaga keltirgan sabablarga bog'lamasdan o'rganadi. Dinamika esa jism harakatini unga ta'sir qiluvchi kuchlar bilan bog'liq holda tadqiq etadi. Statika kuchlar ta'siri ostida jismlarning muvozanat holatini saqlash shartlarini o'rganadi. Mexanikada jism harakatga kelishi mumkin bo'lgan kuchlar mavjud bo'lsa ham, u nisbiy tinchlik yoki muvozanat holatini saqlab qoladigan holatlar ham ko'rib chiqiladi.

O'qitish jarayonida ushbu bo'limlarni turli ko'rgazmali vositalar - videolar, animatsiyalar va slaydlar yordamida tushuntirish o'quvchilarda mavzuning uzoq vaqt davomida saqlanib qolishiga yordam beradi. Shuningdek, fizik jarayonlarni o'zaro bog'liq holda o'rganish yangi qonuniyatlarni aniqlashga olib kelishini tushuntirish orqali o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish mumkin.

Mexanika fizikaning materiya harakatining eng oddiy shaklini o'rganadigan bo'limidir. Bunday harakat jismlar yoki ularning qismlarining o'zaro nisbiy siljishidan iborat. Mexanika, boshqa tabiiy fanlar kabi, o'z qonuniyatlarini tajriba natijalarini umumlashtirish va tizimlashtirish orqali aniqlaydi.

Mexanikaning asosiy qonunlari dastlab Galileo Galiley tomonidan ancha aniqlashtirilgan, keyinchalik Isak Nyuton ularni to'liq va aniq shaklda ifodalab bergan. Leonard Euler esa mexanika qonunlariga birinchi bo'lib matematik, ya'ni analitik yondashuvni kiritib, bu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Shu bilan birga, "klassik mexanika" deb ataladigan Nyuton yoki Galiley-Nyuton mexanikasi yorug'lik tezligiga nisbatan ancha kichik tezliklarda harakatlanuvchi, ko'plab atomlardan tashkil topgan makroskopik jismlar harakatini kuzatish va tajribalar asosida shakllantirilgan. Makroskopik jismlar harakatini o'rganuvchi bu yo'nalish klassik mexanika deb yuritiladi.

Fan taraqqiyoti davomida, ayniqsa XX asrda, klassik mexanikaning qonun va tasavvurlariga to'liq mos kelmaydigan hodisalar aniqlangan. Masalan, osmon jismlarini kuzatishlar natijasida klassik mexanika xulosalaridan ayrim og'ishlar mavjudligi ma'lum bo'ldi. Shu sababli yorug'lik tezligiga yaqin tezliklarda harakatlarni o'rganadigan relyativistik mexanika shakllandi.

Relyativistik mexanika klassik mexanikani inkor etmaydi, aksincha, u klassik mexanikani o'z ichiga oladi. Ya'ni, relyativistik mexanika tenglamalari yorug'lik tezligidan ancha kichik tezliklar uchun klassik mexanika tenglamalariga aylanadi. Shu bois klassik mexanika relyativistik mexanikaga nisbatan xususiy hol sifatida qaraladi va kichik tezliklardagi harakatlarni tavsiflashda o'z ahamiyatini saqlab qoladi <sup>[3]</sup>. Mexanika bo'limidagi barcha mavzular ana shu maqsadni amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Mexanikada fizik kattaliklar ikki guruhga ajratiladi: skalyar va vektor kattaliklar. Faqat son qiymati bilan to'liq aniqlanadigan kattaliklar skalyar kattaliklar deyiladi. Masalan, vaqt, hajm, massa va energiya shular jumlasidandir. Skalyar kattaliklar bilan bog'liq amallar algebraik qoidalarga asoslanadi.

Son qiymati bilan birga yo'nalishga ham ega bo'lgan fizik kattaliklar vektor kattaliklar deb ataladi. Masalan, tezlik, tezlanish va kuch vektor kattaliklarga kiradi. Chizmalarda vektorlar yo'nalishni ko'rsatuvchi strelkali kesmalar ko'rinishida ifodalanadi: kesmaning uzunligi vektorning moduli (son qiymati)ni, strelka uchi esa uning yo'nalishini bildiradi. Bir xil modul va yo'nalishga ega bo'lgan vektorlar teng vektorlar hisoblanadi, bu esa vektorni o'ziga parallel siljitish mumkinligini anglatadi. Agar vektorlarning son qiymati teng, lekin yo'nalishlari qarama-qarshi bo'lsa, ular qarama-qarshi vektorlar deyiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning nafaqat bilim darajasiga, balki ularning tarbiyaviy va aqliy rivojlanishiga ham alohida e'tibor qaratishi lozim. Yetuk inson bo'lish uchun ham aqliy salohiyat, ham yaxshi tarbiya muhimdir. Dars jarayonida mavzuni tushuntirishda faqat og'zaki usul emas, balki yozma, multimedia vositalari, ko'rgazmalar, turli namoyishlar, o'yinlar va hayotiy misollardan foydalanish samarali natija beradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirib, o'quvchilarning bilimini ham nazariy, ham amaliy jihatdan mustahkamlaydi. Bu esa ularning xotirasini rivojlantirishga ham yordam beradi. Demak, ta'lim jarayonida multimedia va axborot texnologiyalaridan foydalanish yaxshi natijalar berishini ko'rish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha pivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". Toshkent -2008 yil.
3. Tursunov A., Yo'ldoshev Sh. Fizikani o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2018
4. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.-T.:Nizomiy nomidagi TDPU,2005.
5. Yusupov D.A. Benefits of improved teaching methodology for teaching nuclear physics sections in universities based on innovative technologies // World Bulletin of Social Sciences (WBSS). Year: 2023, Issue: 2, Volume: 19 – P. 86-91

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.